

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 158 (1484), 2025-yil 5-avgust, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



DO‘STLIK, O‘ZARO ISHONCH VA UMUMIY MANFAATLARGA ASOSLANGAN KO‘P QIRRALI HAMKORLIK

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan 4-avgust kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.



Turkmanboshi shahri aeroportida davlatimiz rahbarini Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov kutib oldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmanboshi shahriga kelgach, Gurbanguli Berdimuhamedov bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Gurbanguli Berdimuhamedovni

BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi yuksak saviyada o‘tkazilayotgani bilan samimiy qutlab, uning kun tartibiga kiritilgan masalalar mintaqamizning barqaror taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidladi.

Joriy yil aprel oyida Samarqand shahrida o‘tgan uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Turkmaniston yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Do‘stlik, o‘zaro ishonch va umumiy manfaatlarni hisobga olish tamoyillariga

asoslangan ko‘p qirrali hamkorlik sur‘ati ortib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Barcha darajalarda samarali va faol muloqotlar davom etmoqda. Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash 600 million dollarni tashkil etdi. Sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo‘jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya chuqurlashib bormoqda.

Birgalikda “Shovot — Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasi tashkil etilmoqda, faol hududlararo aloqalar va gumanitar almashinuvlar davom ettirilmoqda.

Bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik doirasida hukumatlararo komissiyalar yig‘ilishlari, Ishbilarmonlar kengashi, Hududlar forumi, qator madaniy tadbirlar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, BMT konferensiyasi kun tartibi hamda joriy yil kuzda Toshkent shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi yuzasidan atroficha fikr almashildi.

O‘zbekiston yetakchisi 5-avgust kuni BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasida, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish masalalariga bag‘ishlangan maxsus tadbirda ishtirok etadi hamda qator ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazadi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON XALQARO HAMKORLAR BILAN BIRGALIKDA KELAJAKKA YO‘NALTIRILGAN BARQAROR TRANSPORT TARMOG‘INI RIVOJLANTIRADI

BMTNING DENGIZGA CHIQISH IMKONI BO‘LMAGAN RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR BO‘YICHA III KONFERENSIYASI



2025-YIL 4-5-AVGUST,
AVAZA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-avgust kuni Turkmanistonning “Avaza” turistik zonasida BMTning dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha bo‘lib o‘tadigan III konferensiyasida ishtirok etadi.

III konferensiya BMT kotibiyati tomonidan Turkmaniston hukumati bilan birgalikda tashkil etilyapti.

Konferensiyada davlat va hukumat rahbarlari, 100 dan ortiq yuqori darajadagi delegatsiya, jumladan, 32 ta rivojlanayotgan mamlakat vakillari, shuningdek, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterriush ishtirok etishi kutilmoqda.

Konferensiya doirasida siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar tadbirlar, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarining milliy kunlari, madaniyati, san‘ati va milliy taomlari namoyish etiladi. Shuningdek, mintaqa davlatlarining milliy yutuqlari, sarmoyaviy va infratuzilma loyihalari, texnologik yechimlariga bag‘ishlangan ko‘rgazma bo‘lib o‘tadi.

Dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga BMTga a‘zo 32 ta davlat kiradi. MDH

davlatlari orasida Armaniston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston uning ishtirokchiligidir. Guruhning asosiy vazifalari a‘zo mamlakatlarning jamoaviy iqtisodiy manfaatlarini rivojlantirish va ilgari surish, global miqyosda kelishilgan maqsad va harakat dasturlarini samarali amalga oshirish, BMT, Jahon savdo tashkiloti va boshqa ko‘p tomonlama forumlar doirasida asosiy xalqaro iqtisodiy masalalar bo‘yicha ularning umumiy pozitsiyasini mustahkamlashdan iborat.

Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha xalqaro konferensiya muhim qarorlar qabul qilishning asosiy platformasi bo‘lib, u har o‘n yilda bir marta o‘tkaziladi.

Davomi 2-betda



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

So‘nggi yillardagi izchil islohotlar tufayli mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ayniqsa, inson manfaatlarini to‘laqonli ta‘minlashga qaratilgan oqilona siyosat natijasida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan ezgu g‘oya amalda o‘z tasdig‘ini topyapti.

IJRO INTIZOMI — ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI



Davlatimiz rahbari qayd etganidek, rahbarlar pastga tushib, odamlar bilan bevosita muloqot qilayotgani, ularni qiyinayotgan muammo va joylardagi kamchiliklarni bartaraf etishga intilayotgani diqqatga sazovor. Bu davlat va xalq o‘rtasida ilgari mavjud bo‘lgan o‘ziga xos to‘siqlar yo‘qolib, ochiqlik, shaffoflik, oshkoralik tobora hayotimizga

singib borayotganidan dalolat. Zotan, xalqqa yaqinlashish ish samaradorligini oshirishi barobarida mas‘uliyatni, belgilangan har bir topshiriq va chiqarilayotgan hujjatlar ijrosini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Davomi 3-betda



Inson qadri uchun

DAVLAT XALQQA QO‘L UZATSA, XALQ UNGA YURAK OCHADI

Ba‘zan hayotda sodda, lekin aytib bo‘lmaydigan holatlar bo‘ladi — inson qalbida sevinch to‘lib-toshadi, biroq uni ifoda etish uchun so‘z yetishmaydi. Bugungi O‘zbekistonda kechayotgan o‘zgarishlar aynan shunday holatdir. Bular haqida ko‘p gapirish, tasvirlash mumkin, lekin to‘liq his etish uchun shu yurtda yashash, shu o‘zgarishlar ichida nafas olish kerak.

Yangi yo‘llar, nurli ko‘chalar, zamonaviy bog‘cha va maktablar, yashash uchun qulay uylar... Bu oddiy manzara emas, yurtimizda siyosiy iroda, qat‘iy qarorlar va xalq manfaatiga xizmat yo‘lida kechayotgan islohotlarning hayotdagi ifodasidir. Bu vatan tuyg‘usini qayta uyg‘otgan, fuqaro-davlat munosabatlarini

yangilagan, xalqni qadrlashni davlat siyosatining asosiga aylantirgan tashabbus, islohot natijasidir.

Bugun shunchaki islohot emas, balki yangi tafakkur, yangi davlat boshqaruvi, yangi javobgarlik madaniyati shakllanmoqda. Bu jarayonlarda Prezidentimizning tashabbusi, shaxsiy ishtiroki, qo‘llovi va mas‘uliyatini e‘tirof etmaslik adolatsizlik bo‘ladi. Zero, har bir farovon mahalla, har bir nurli ko‘cha va har bir qulay xonadon ortida xalq dardini eshitgan, unga yechim izlagan rahbar shaxsining sa‘y-harakati mujassam.

Boshiga tushgan tashvishdan xomush, idora eshigini qimtinib taqillatgan inson muammosi yechim topgach, yuziga tabassum yuguradi. Uning so‘zsiz tashakkuri, ko‘nglidagi yengillik xalqqa yaqinlashgan davlatning eng aniq ko‘rinishidir. Men doim aytaman: davlat xalqqa qo‘l uzatsa, xalq unga yurak ochadi.

Davomi 2-betda

Tahlil



Yaqin yillarga qadar “ilik uzildi” mahal bozorlarimizda meva-sabzavot ancha tortilib qolardi. Kamida yigirma kun-bir oy bozor rastalari bo‘shab, qimmatchilik boshlanardi. Bunday paytda olma, shaftoli, pomidor-u bodring kamyob mahsulotga aylanardi. Bozor-o‘char qilganda gohida bunday mahsulotlarni sotib olishga qo‘limiz kaltalik qilgani ham bor gap. Bu holat, ayniqsa, chekka hududlarda juda sezilardi. Ko‘pchilikning dasturxoni “kambag‘allashardi”. Qolaversa, bahorda sotib olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining maza-matrasi bo‘lmardi.

Davomi 4-betda





O‘ZBEKISTON XALQARO HAMKORLAR BILAN BIRGALIKDA KELAJAKKA YO‘NALTIRILGAN BARQAROR TRANSPORT TARMOG‘INI RIVOJLANTIRADI

Boshlanishi 1-betda

BMT Bosh Assambleyasining 57/242-rezolyutsiyasiga muvofiq, 2003-yilning 28-29-avgust kunlari Qozog‘istonning Olmaota shahrida dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarda bo‘yicha birinchi xalqaro konferensiya chaqirildi. Ushbu yig‘ilish oldidan hukumatlararo tayyorlov qo‘mitasining ikkita ochiq majlisi bo‘lib o‘tdi.

Anjuman yakunlari bo‘yicha samarali tranzit transport tizimlarini yaratish, ma‘muriy tartib-taomillarni takomillashtirish va chegara nazorati tartib-qoidalarini soddalashtirish bo‘yicha global asosni shakllantirishga qaratilgan Olmaota harakatlar dasturi qabul qilindi.

2014-yil 3-5-noyabr kunlari Avstriyaning Vena shahrida BMTning dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarda bo‘yicha II konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Tadbirning asosiy natijasi 2014-2024-yillarga mo‘ljallangan Vena harakat dasturining qabul qilinishi bo‘ldi. Dastur dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiyot va kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha muammolarini hal qilishga oid chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

O‘zbekiston yuqoridagi qayd etilgan hujjatlar doirasida muayyan muammolarni hal qilishga qaratilgan xalqaro sa‘y-harakatlarda faol ishtirok etmoqda. Xususan, barqaror transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar izchil amalga oshirilayapti. Ular BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan milliy taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aйлandi.

2022-yilda BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tashabbusi bilan 40 ta davlat bilan hammualliflikda qabul qilingan Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha maxsus rezolyutsiyani bir ovozdan ma‘qulladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Transaf‘on temir yo‘li qurilishi, O‘rta transport yo‘lagini rivojlantirish, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi, Xitoy — Markaziy Osiyo loyihalari kabi yirik dasturlar tashabbuskorlari qatorida bo‘ldi va ularda ishtirok etdi.

Bu ichki infratuzilmani modernizatsiya qilish — temir yo‘llarni qurish va elektrlashtirish, zamonaviy logistika uzellari va terminalarini yaratish borasidagi sa‘y-harakatlar bilan to‘ldirilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Turkiya davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa mintaqaviy formatlarda o‘z kun tartibini faol ilgari surmoqda.

Ko‘p tomonlama yondashuv allaqachon o‘z samarasini bermokda. O‘zbekiston orqali tranzit tashish hajmi oshib bormoqda, mamlakatning Yevroosiyodagi transport xabi sifatidagi roli mustahkamlanmoqda. Eng muhimi, obyektiy geografik cheklavlarga qaramay, mamlakat tashqi xavf-xatarlarga chidamliligini kuchaytirib, jahon iqtisodiyotiga to‘liq integratsiyalashuvga yo‘l ochmoqda.

O‘zbekistonda dengizdan ikki baravar uzoqlik endi qiyinchilik sifatida qabul qilinmaydi. Bugungi kunda O‘zbekiston uchun bu xalqaro ustuvorliklarni belgilovchi va mamlakatni yangi Yevroosiyo logistikasining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi strategik omildir.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning Turkmanistonda bo‘lib o‘tadigan konferensiyasidagi ishtiroki mamlakatning xalqaro hamjihatlikni mustahkamlash va muhokama etilayotgan muammolarning barqaror yechimlarini topishga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi hamda dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan mamlakatlarning global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi bo‘yicha yangi kun tartibini shakllantirishga konstruktiv hissa qo‘shadi.

“Dunyo” AA

Inson qadri uchun

DAVLAT XALQQA QO‘L UZATSA, XALQ UNGA YURAK OCHADI



Manzura VALIYEVA, Shayxontohur tumanidagi “Yangiobod” MFY raisi, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi

Boshlanishi 1-betda

Avvallari mahalla idorasi xodimlari faqat axborot yetkazuvchi edi. Tadbirkorlik boshlash uchun hujjat yuritish, kredit masalasida tavsiyanoma olib

ushbu noyob tuzilmaning institutsionallashuvi va eng asosiysi, xalqqa yaqin, samarali davlat boshqaruvini qaror toptirishga qaratilgan qat‘iy siyosat samarasidir. Yangi mahalla modeli yangi O‘zbekistonni qurishdagi asosiy tayanch nuqtalardan biriga aylandi.

Mana shunday islohotlarning mantiqiy davomi sifatida “mahalla yettilligi” tizimi aholining eng ko‘p uchraydigan muammolarini aniq tahlil qilish asosida shakllantirildi. Yillar davomida mahallalarga kelib tushgan murojaatlar chuqur o‘rganilib, aholining ish bilan bandligi, kambag‘allikni kamaytirish, jinoyatchilikning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik va ma‘naviy yuksaklik ruhida tarbiyalash, oilalarda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash kabi asosiy yutuq nuqtalari bo‘yicha yagona tizimni yondashuv ishlab chiqildi.

Ta‘bir joiz bo‘lsa, “mahalla yettilligi” faoliyati aholining 70 dan ortiq dolzarb muammosini mahallaning o‘zida hal etish imkonini bermokda. Bu esa mahallani davlat va jamiyat boshqaruvining ta’sirchan bo‘g‘iniga aylantirishda islohotlar falsafasining amaldagi yorqin namunasidir.

u butun mamlakat bo‘ylab amaliyotda o‘zini oqlamoqda. Bar jarayonda mahallalar muhim tayanch nuqtaga aylanib, faqat muammo ma‘lum qilinadigan emas, balki yechim topiladigan maskanga aylandi.

Faqatgina 2024-yilda mahalla tizimi ko‘magida 754 mingdan ortiq ishsiz fuqaroning bandligi ta‘minlandi. 194 mingga yaqin fuqaro tadbirkorlik faoliyatini boshladi, 472 mingdan ziyod insonga imtiyozli kredit, 48,2 ming fuqaroga esa subsidiya ajratildi. Yanada muhim jihat — 165 ming 729 kishi, jumladan, 69,6 ming xotin-qiz va 96,1 ming yosh kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitilib, hayotda mustaqil yo‘lini topdi.

Ko‘lami keng bu ishlarning har biri ortida aniq reja, qat‘iy siyosiy iroda va inson manfaatlarini ustuvor qo‘ygan islohotlar mujassam. Bu raqamlar shunchaki statistika emas, ular ortida farovonlikka yuz tutgan minglab oilalar, farovon hayot sari odimlayotgan yurtdoshlarimiz taqdiri yotadi.

Yangiobod mahallasida ham “mahalla yettilligi” tizimi orqali ko‘plab ijtimoiy muammolarga amaliy yechim topildi. Masalan, kam daromadli va ehtiyojmand oilalarning 30 a‘zosiga imtiyozli kredit olishda ko‘maklashildi. Bu orqali ular shaxsiy biznesini boshlash, tomorqasini kengaytirish yoki yangicha tirikchilik qilish imkoniga ega bo‘ldi.

Shuningdek, 14 nafar yosh qo‘shimcha kasb-hunar egallashi uchun o‘quv kurslariga yo‘naltirildi. Ularning ba‘zilari hunarmandlikni, ba‘zilari esa IT yo‘nalishlarni o‘rganib, hayotda o‘z o‘rnini topish yo‘lida ilk qadamlarni qo‘ymoqda. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan 7 fuqaroga esa mahallaga birlashtirilgan bank mutaxassislari bilan hamkorlikda biznes reja tuzishda, kredit olish va ro‘yxatdan o‘tishda bevosita amaliy yordamlar berildi.

Bundan tashqari, 104 fuqaroni o‘zini o‘zi band qilishga yo‘naltirish bo‘yicha zarur shart-sharoitlar yaratildi. Har biriga qiziqishidan kelib chiqib turli faoliyat turlari, uskunalar va masofaviy ish imkoniyatlarini tavsiya etildi.

Ijtimoiy himoya sohasida ham muhim qadamlar tashlandi. Kam ta‘minlangan oilalarning oliy ta‘lim muassasalarida o‘qiydigan 5 farzandi uchun kontrakt to‘lovlarini to‘lab berildi. Bu nafaqat bir necha oilaning og‘irini yengil qildi, balki ta‘limni qo‘llab-quvvatlash, farzandlar kelajagiga ishonch bilan qarashning yorqin namunasiga aylandi.

Mahallaning yana bir muhim vazifasi oila mustahkamligini asrash, oilaviy ajrimlar oldini olishdir. Bu yo‘nalishda nuroniylar — hoji ota va



banklarga yugurish, soliq yoki hokimlik idoralari oldida sarg‘ayib o‘tirish oddiy hol edi. Ko‘pincha murojaatlar aylanma yo‘llar bilan yechimsiz qolar, fuqaro esa “Holimni tushunadigan tizim bormi?” degan savol javobsiz edi.

Bugun manzara tubdan o‘zgardi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy etilgan “mahalla yettilligi” — mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliqchi bir jamoa bo‘lib, xalq muammosini mahallaning o‘zida hal etish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Endi joylardagi ko‘plab masalalar idoralararo yugur-yugursiz, tezkor va samarali hal bo‘lmoqda.

Mazkur tizimning samarasini rasmiy raqamlar ham tasdiqlaydi. O‘tgan yilda 4901 ta mahalla jinoyatchilikdan, 2930 tasi oilaviy ajralishdan, 1795 ta mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylandi. Mahalla fuqarolar yig‘inlarida aholi murojaatlarining 80 foizdan ziyodi joyida hal etildi. Masalan, Shayxontohur tumanidagi “Yangiobod” mahalla fuqarolar yig‘ini ham 2025-yilda “yashil toifa”ga kiritildi, ya‘ni mahallamizda jinoyat, oilaviy ajrashishlar qayd etilmadi.

Bu natijalar mahalladagi tub islohotlar,



Hududlarda

Nukus shahrining Bo‘zovul mahallasidagi hunarmand Ra‘no Berdiyeva tikuv sexida 7 xotin-qizni ish bilan ta‘minlagan. Tadbirkor faoliyatini 2020-yilda boshlagan edi. Shu vaqt oralig‘ida u nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarni tikuvchilikka o‘rgatib, ishlil qilayotgan tadbirkor sifatida tanildi. U yoshlarga tikuvchilikni bepul o‘rgatadi. O‘ziga kelgan buyurtmalarini shogirdlariga ishonib topshiradi, hatto buning uchun ularga qo‘l haqi ham beradi.

Mahallada bunday ishbilarmonlar yetarlicha topiladi. Ulardan biri yosh tadbirkor Rashid Qalboyevdir. U “Bo‘zovul mahalla universal servis kompaniyasi” asoschisi. Yosh tadbirkor kam ta‘minlangan o‘nga yaqin insonni doimiy ishga jalb qildi. Ular hunar o‘rganib, oilasiga daromad olib kirishiga yordam berdi.

— Chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan oilada tarbiya olganman. Bo‘sh vaqtimda taksi haydaganim shahrimizni o‘ziga xos usulda o‘rganishimga sabab bo‘ldi. Shu jarayonda temirdan eshik va darvozalar yasash biznesini boshlashni niyat qildim. Tadbirkorlikka 2020-yilda qo‘l urdim. Albatta, avvaliga qiyinchilik bo‘ldi. Lekin hammasi o‘tib ketdi. Hozir ishlarnim ancha yaxshi. Maqsadim — ishimni yanada rivojlantirib, yangi ish o‘rinlarini yaratish, — deydi tadbirkor Rashid Qalboyev.

Nukus shahridagi “Jeke terek” mahalla

fuqarolar yig‘ini hududida un va makaron mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona bor. Hozir korxonada o‘n bir turdagi makaron ishlab chiqarilayapti. Kuniga 12 tonnagacha tayyor mahsulot mahalliy bozorlarga yo‘naltirilyapti. Ilgari bozorlarimizni makaron mahsulotlari bilan ta‘minlashda import ulushi yuqori edi. Tadbirkorlarga keng imkoniyat yaratilgach, bunday mahsulotlarni o‘zimizda ishlab chiqarish ko‘paydi. Bu esa mahsulot narxi va sifatiga ham ijobiy ta’sir qilmokda.

Nukuslik yana bir tadbirkor Genjeboy Aytumurotov yuqori sifatli muzqaymoq ishlab chiqaradi. Joriy yil may oyida faoliyat boshlagan korxona kuniga 30 ming dona muzqaymoq ishlab chiqarish quvvatiga ega.

— Muzqaymoqlarni Italiya va Polsha texnologiyalari yordamida ishlab chiqaryapmiz, — deydi “Yuventa Nukus” korxonasi rahbari G.Aytumurotov. — Loyihamizning umumiy qiymati 10 milliard so‘m. Bundan tashqari, sutni qayta ishlash korxonamiz bor. U 2000-yildan beri faoliyat yuritadi. O‘shandan buyon aholiga sut mahsulotlarini yetkazib beryapmiz. Shuningdek, Yevropadan 700 dan ortiq naslli chorva olib kelganmiz. Zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirib, milliy brenddagi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirib boryapmiz.

Prezidentimizning “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur‘atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida loyiha uchun imtiyozli kredit ajratildi. Natijada yiliga 672 tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvati

yaratildi. Asosiysi, 23 fuqaroning bandligi ta‘minlandi.

“Kegeyli mebel markazi” korxonasi Prezidentimiz qaroriga asoslanib berilgan 400 million so‘m kredit hisobiga faoliyat boshlagan. Loyiha doirasida tumanda mebel ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shu orqali 15 kishi, jumladan,

imkoniyati cheklangan besh shaxs ish bilan ta‘minlandi. Korxona zamonaviy mebellarni eksportga yetkazib berish taraddudida.

Shuningdek, Qo‘ng‘irot tumani Hakim ota mahallasida yashovchi tadbirkor Majid Otamurotov imtiyozli kredit evaziga mebel ishlab chiqarishni boshladi. Loyiha sabab o‘nga



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



IQTISODIY QUVVATNING HUQUQIY ASOSI

QORAQALPOG‘ISTONDA TADBIRKORLIKKA BERILGAN IMTIYOZLAR NATIJASI

yaqin qo‘shimcha ish o‘rni yaratildi. Zamonaviy dizaynga ega mebellarning keng tanlovi xaridorlarni jalb qilmokda.

Biz tilga olgan tumanlarga mebellar ilgari chetdan olib kelinardi. Bugun hunar o‘rgangan yoshlarimiz ichki bozorni to‘liq ta‘minlayapti.

Taxiatosh tumanidagi eshik ishlab chiqarish majmuasida to‘rtta tadbirkorlik subyekti faoliyat ko‘rsatadi. Shulardan biri “Xo‘ja naqshlari” mas‘uliyati cheklangan jamiyati. Tadbirkor turli eshik va darvozalar ishlab chiqarmoqda.

— Bankdan imtiyozli kredit olib ish boshlaganimizga olti yil bo‘ldi. Bugungi kunda 10 kishi ish bilan ta‘minlangan. Buyurtma asosida eshik ishlab chiqaramiz. Shuningdek, bozordagi savdo nuqtalariga ham mahsulot yetkazib beramiz. Yurtimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar ishimiz yanada rivoj olishiga zamin yaratmoqda, — deydi korxona ish yurituvchisi Rashid Jumambetov. — Korxonamizda 15 kishi ishlaydi. Mahsulotlarimizni asosan ichki bozorga sotayapmiz. Arzon eshiklarimiz 400 ming bo‘lsa, qimmat 600 ming so‘m. Mahsulotlarimizni bozorga chiqarish bilan birga xaridorlarni buyurtmasi bo‘yicha ham yetkazib beramiz. Daromadimiz yomon emas, — deydi “Ramazan-Gulnaz” korxonasi ishchisi Bekbolat Nurimbetov.

Prezidentimizning “Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Qoraqalpog‘istonda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha alohida ko‘rsatmalar berilgandi. Shu asosda yaratilgan sharoitlar sabab hududda ishbilarmonlar safi kengayib, yangi loyihalar ishga tushirilmoqda.

Amudaryo tumanida qishloq xo‘jaligi va sanoat sohaslarida ham yangi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, tumandagi Korxonasi mahallasida “Jamoliddin Jayhun” uyushma jamiyati 1 milliard so‘m loyiha asosida baliqchilikni, “Qoraqalpog‘ mahsulotlari” korxonasi 1,3 milliard so‘m maablag‘ hisobiga parandachilik va go’sht mahsulotlarini qayta ishlashni yo‘lga qo‘ydi. “Jayhun motors” korxonasida esa motoroller yig‘ish boshlandi. Bu loyihalar orqali yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi oshmoqda.

Tumanda “Botir Xonqaz” va “Al Kafil biznes plast” korxonalari qiymati 2 milliard so‘m bo‘lgan loyihalar asosida plastmassa idishlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yib, 20 ta ish o‘rni yaratdi. “Ravshanbek-Yulduzxon” xususiy korxonasining qandolat, non mahsulotlari ishlab chiqarish va sutni qayta ishlash sexi ham namunali tadbirkorlik subyektlaridan biridir.

Bunday ishbilarmonlar safi esa tobora kengayib boryapti. Bu har bir tadbirkor doim e’tiborda ekani va qo‘llab-quvvatlanayotganidan dalolat.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



IJRO INTIZOMI – ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI



Shuhrat QODIROV,
Kosmik tadqiqotlar va
texnologiyalar agentligi direktori

Boshlanishi 1-betda

Intizom bor joyda unum, baraka bo'ladi. Rejalar aniq, ish tartibli kechadi, shunga yarasha natija kutiladi. Ya'ni har qanday faoliyat va jamoada ijro intizomi katta ahamiyat kasb etadi. Aytish joiz bo'lsa, biror-bir natija kutishdan oldin ijro mukammal bo'lishi kerak. Mukammallik esa muvaffaqiyatga eltuvchi vositalardanidir.

Albatta, kosmik soha rivojida bu jihatlarning o'rni juda muhim. Chunki kosmik faoliyatning o'zi o'ta aniqlikni talab etadi. Bu esa, o'z-o'zidan ravshanki, katta mas'uliyat degani.

Zamonaviy boshqaruvning strategik vositasi

Bugun hayotimizni zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Dunyo raqamlashar ekan, ko'rsatilayotgan xizmatlar ham eng so'nggi yechimlarni talab etmoqda. Yangi avlod gadjetlari, sun'iy intellekt va raqamli vositalar taraqqiy etgani sari kosmosdan foydalanish ehtiyoji yanada ortib bormoqda. "Aqlli" shahar, "aqlli" uy, robotlashgan dasturlar kabi noyob konsepsiyalar mazkur yo'nalish insoniyat kelajagi uchun muhim ekanini ko'rsatmoqda.

Hozir jahon bozorida kosmik sohaning iqtisodiy ulushi 500 milliard dollardan oshgan. Tahlilchilar 2030-yilga borib bu raqam 1 trillion dollarga, 2035-yilda esa 2 trillion dollargacha yetishi mumkin deya taxmin qilmoqda.

Kosmik faoliyat XXI asrda global taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugun sun'iy yo'ldosh texnologiyalari, yerni masofadan zondlash, atmosfera tahlili va navigatsiya tizimlari nafaqat fan va texnologiya, balki iqtisodiyot, ekologiya, xavfsizlik va boshqaruv sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni shu jihatlarni inobatga olgan holda 2019-yilda Prezidentimiz farmoni bilan Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi qaytadan tashkil etilib, unga innovatsion kosmik texnologiyalardan foydalanib, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada taraqqiy ettirish vazifasi yuklandi. Bu yo'lda esa o'ta muhim yo'nalishlar, ta'bir joiz bo'lsa, strategik ahamiyatga ega tarmoqlarni Davlat kosmik monitoringi tizimi orqali sun'iy yo'ldoshlar yordamida kuzatib borish belgilandi.

Biroq har qanday strategiya, dastur yoki islohot natija berishi uchun uning bajarilishi,

ijro intizomi endi ma'muriy zarurat emas, balki zamonaviy boshqaruvning strategik vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

"O'zbekkosmos" agentligi Prezidentimiz va hukumat belgilab bergan vazifa hamda topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishga mas'uliyat bilan yondashadi. Bunda davlat rahbarining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralarga yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori muhim dastur bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining shu yil 25-iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat hujjatlarining ijrosi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy qilish, ijro natijasi bo'yicha aniq hisobdorlikni ta'minlash bilan birga barcha bo'g'indagi rahbarlar va xodimlarning ijro intizomiga qat'iy rioya etish bo'yicha shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini yanada oshirishga zamin bo'lmoqda.

Mazkur farmonga ko'ra, ijro intizomini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari sifatida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini nazorat qilishning samarali mexanizmlarini joriy qilish, hududlarda islohotlar natijadorligini o'rganish va ijro intizomini mustahkamlash ishlari sifati tashkil etish, davlat organlari va tashkilotlarda ijroni ta'minlashda birinchi rahbarlarning mas'uliyatini oshirish, shuningdek, ijro intizomini nazorat qilish jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish kabi yangi vazifalar belgilandi.

Endi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari va topshiriqlari ijrosi "ijro.gov.uz" tizimida davlatimiz rahbarining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini nazorat qilish tartibida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosi bo'yicha nazorat va hisobdorlik 2025-yil 1-oktabrdan boshlab "ijro.gov.uz" tizimi orqali tashkil etiladi.

Farmonning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, davlat organlari va tashkilotlarning rahbarlari joriy yil 1-oktabrdan boshlab qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlashda jamoatchilik nazoratini o'rnatish maqsadida ijro intizomi to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni o'z tashkilotlari, shuningdek, Adliya vazirligining veb sahifalariga joylashtirib, har oyda ma'lumotlarni yangilab berish, shuningdek, har chorakda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat hujjatlari ijrosi holati bo'yicha keng jamoatchilikka hisobot berishga majburiy.

Shundan kelib chiqqan holda, agentlikda zamonaviy boshqaruv uslublarini amaliyotga joriy etish, nazorat qilish va ijroni tekshirish shakllarini takomillashtirish, talabchanlikni kuchaytirish, xodimlarning berilgan topshiriq uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha qat'iy choralar ko'rilgan.

Vazirlar Mahkamasida "ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olingan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida har hafta vazirlik va idoralarning rahbar o'rinbosarlari, nazorat bo'limlari va mas'ul tarkibiy yo'nalishlar rahbarlarining

qilinib, topshiriq va vazifalar belgilanadi. Bu orqali topshiriqlar bajarilishini kunlik tashkil etish bo'yicha oylik kalendar grafiklarni tasdiqlash hamda rahbar o'rinbosarlarining "yo'l xaritalari" orqali amalga oshirish, barcha darajadagi tarkibiy tuzilmalar rahbarlari va xodimlar faoliyati samaradorligini KPI orqali baholab borish natija bermoqda.

Agentlik tomonidan 2021-2023-yillarda umumiy hisobda 351 ta, 2024-yil yakunlari bo'yicha esa 201 ta topshiriq ijrosi ta'minlangan. Joriy yilning birinchi yarim yilligida 117 ta topshiriq ijrosi muddatidan oldin bajarildi.


Imkoniyat va natijalar

Ijro intizomi kosmik sohadagi islohotlarning o'ziga xos "dvigatel"idir. Kosmik sohadagi loyihalarni amalga oshirishda esa bu eng muhim omillardan. Sababi ushbu tarmoqda har bir ish uzoq muddatli, yuqori texnologiyali va ko'p bosqichli jarayonlarni qamrab oladi. Bunday tizimda rejalariga aniq rioya qilish, topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarish, nazorat hamda hisobot to'liq ishlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro tajribaga e'tibor qaratsak, kosmik sohada yetakchi NASA, ESA, JAXA, CNSA kabi kosmik agentliklarda sifat va ijro intizomi ish jarayonining asosiy ustunidir. Bu tashkilotlar rejalar, nazorat, hisobot va mas'uliyatni raqamlashtirish orqali yirik loyihalarni samarali amalga oshiradi. Barcha xodimlar shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatni his etgan holda mehnat qiladi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda kosmik faoliyatni tartibga solish, kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar sohasida yagona davlat siyosati va strategik yo'nalishlarni belgilash maqsadida bugunga qadar Prezidentimiz hamda hukumatning 10 ga yaqin normativ-huquqiy hujjati qabul qilindi. Agentlikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan Davlat kosmik monitoringini amalga oshirish doirasida sezilarli ishlar bajarildi.

Xususan, yer munosabatlari sohasida yer uchastkalarining o'zboshimchalik bilan egallab olinishi hamda o'zboshimchalik bilan egallab



olingan yer uchastkalarida bino va inshootlar qurilishini aniqlash bo'yicha Toshkent shahri, Sirdaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlarida kosmik monitoring o'tkazildi. Ularda 350,85 gektar yerda jami 4117 ta o'zboshimchalik bilan qurilgani ehtimoli yuqori bo'lgan bino va inshoot aniqlandi.

Geologiya sohasida yer qat'idan o'zboshimchalik bilan foydalanish, foydali qazilmalar joylashgan maydonlarni asossiz va boshqa maqsadlarda ishlatish holatlarini aniqlash bo'yicha Toshkent shahri, Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida kosmik monitoring o'tkazildi. Natijada 280,1 gektar yerda jami 329 ta ehtimoli yuqori bo'lgan noqonuniy qazish holati aniqlandi.

Suv xo'jaligi sohasida suv sathi rejimini monitoring qilish ishlari bo'yicha 49 ta suv ombori hududida kosmik monitoring o'tkazildi. Ayni kunlarda Ohangaron, Varzik, Jiydalisoy, Qo'rg'ontepa suv omborlarida loyqa oqiziqalar bilan to'lib borish dinamikasi holatini o'rganish jarayoni davom etmoqda.

Seysmologiya yo'nalishida 16 ta suv omborida to'g'onlarning deformatsiyalanish, siljish va cho'kish dinamikasini kosmik monitoring qilish bo'yicha hamijrochi kompaniyalar (X Sat FZE, BAA) tomonidan joriy yil sentabriga qadar tegishli ishlar bajarilmoqda.

Ekologiya sohasida chiqindilarni saqlash joylarida belgilangan hududdan tashqariga chiqish, yangi paydo bo'lgan noqonuniy chiqindi zonalarini aniqlash bo'yicha Toshkent shahri va Jizzax viloyatida kosmik monitoring o'tkazilib, 33,5 gektar yerda 202 ta ruxsat



etilgan chiqindi poligoni chegarasini buzish holatlari aniqlandi.

Boshoqli don ekinlaridan bo'shagan yerlarda somonpoyalar va qoldiqlarini yoqish (dalalar yoqilishi) holatlarini aniqlash vazifasi doirasida joriy mavsum respublika bo'yicha 5697,3 gektarda 674 ta somonpoya va qoldiqlarini yoqish holati aniqlandi. Agentlik aniqlagan ma'lumotlar kelgusida qonuniy chora ko'rish uchun tegishli davlat tashkiloti va mahalliy hokimliklarga taqdim etildi.

“

“O'zbekkosmos” agentligi bugunga qadar BMTning Kosmosdan tinch maqsadlarda foydalanish qo'mitasi, Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi hukumatlararo maslahat qo'mitasining Barqaror rivojlanish uchun kosmik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mintaqaviy dasturi, Xalqaro astronomika federatsiyasi, Turkiy davlatlar tashkiloti, MDH Davlatlararo kosmik kengashi bilan hamkorlikni to'liq yo'lga qo'yg'an.

ishlar, natijalarni qayd etdik. Lekin oldimizda turgan ishlar, reja va loyihalar bisyor. Ularni amalga oshirish esa mas'uliyatli, intizomli hamda malakali kadrlarga bog'liq. Shu ma'noda, Prezidentimizning 2024-yil 14-oktabrdagi "2024-2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida "O'zbekkosmos" agentligi tomonidan ilm-fanni rivojlantirish, kosmik ta'lim va kadrlar malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Binobarin, mazkur yo'nalishda muayyan ishlar qilindi.

Jumladan, mahalliy ta'lim tashkilotlari va davlat idoralari bilan hamkorlik natijasida geoaxborot tizimlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish hamda mazkur tizimlarda ishlash uchun zarur bilim va ko'nikmaga ega mutaxassislar tayyorlash maqsadida shartnomalar imzolandi. Unga ko'ra, xodimlar uchun malakani oshirish kurslari tashkil etib kelinmoqda.

Toshkent davlat transport universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetlari bilan bakalavrlarning bitiruv-malakaviy ishi hamda magistrnlarning magistrlik dissertatsiyasi mavzulari tahlil qilinib, tegishli sohalarga oid mavzular taklif sifatida kiritilmoqda. Shuningdek, agentlik mutaxassislarining oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan davlat attestatsiya komissiyasi a'zosi sifatida bitiruv-malakaviy ishlari himoyasida muntazam qatnashishi ta'minlanmoqda.

Shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish hamda kadrlar zaxirasini shakllantirish uchun "O'zbekkosmos" agentligi tomonidan ko'plab xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Xususan, kosmik faoliyatga ixtisoslashtirilgan Edinburg universiteti, Birmingem universiteti (Buyuk Britaniya), Ayova universiteti, Minnesota universiteti, Kolorado universiteti va Arizona universiteti (AQSH) kabi 10 ga yaqin xorijiy oliy ta'lim muassasasida iqtidorli talabalar tayyorlanmoqda.

Fransiyaning Xalqaro kosmik universiteti o'tkazayotgan "Space Studies Program-2025" o'quv dasturida ishtirok etish, Niderlandiyaning "SpaceBuzz" kompaniyasi tomonidan o'qituvchilar uchun onlayn o'quv vebinari tashkil etish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Hozirga qadar "O'zbekkosmos" agentligi tomonidan Kyushu texnologiya instituti (Yaponiya), Padua universiteti (Italiya) va Moskva aviatsiya instituti (Rossiya) bilan o'zaro anglashuv memorandumlari imzolangan. Bu kosmik sohada ta'lim sifatini oshirish va mutaxassislar tayyorlashga, qolaversa, tajriba va ilg'or bilim almashishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro hamkorlik mas'uliyatni yanada oshiradi

Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, kengaytirish va muvofiqlashtirish agentligimiz faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu, o'z navbatida, dunyoning yetakchi kosmik agentliklari va kompaniyalari bilan tajriba, ilg'or texnologiyalar va bilim almashish uchun katta imkoniyat yaratadi.

"O'zbekkosmos" agentligi bugunga qadar BMTning Kosmosdan tinch maqsadlarda foydalanish qo'mitasi, Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi hukumatlararo maslahat qo'mitasining Barqaror rivojlanish uchun kosmik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mintaqaviy dasturi, Xalqaro astronomika federatsiyasi, Turkiy davlatlar tashkiloti, MDH Davlatlararo kosmik kengashi bilan hamkorlikni to'liq yo'lga qo'yg'an.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 10-oktabrdagi "Kosmik fazo, shu jumladan Oyni va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish hamda ulardan foydalanish bo'yicha davlatlarning faoliyati prinsiplari to'g'risidagi shartnomaga (London, Moskva va Vashington, 1967-yil 27-yanvar) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi qonuni bilan mamlakatimiz kosmik fazo, jumladan, Oy va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish va ulardan foydalanish bo'yicha davlatlarning faoliyat tamoyillari to'g'risidagi shartnomaga qo'shildi. Hozirga qadar unga 114 davlat qo'shilgan bo'lsa, O'zbekiston 115-ishtirokchiga aylandi.

Natija, mas'ullik, javobgarlik va rivojlanish kafolati

Joriy yil 31-iyulda davlatimiz rahbari huzurida qishloq xo'jaligida kosmik ma'lumotlardan foydalanish va raqamlashtirish chora-tadbirlari bo'yicha bo'lib o'tgan yig'ilishda "O'zbekkosmos" agentligi hisoboti tinglandi.

Bunda Prezidentimizga "O'zbekkosmos" agentligi tomonidan davlat kosmik monitoringi natijalari, xususan, o'zboshimchalik bilan egallangan yerlar, o'rmon qoplamlari va turlari, suv iste'moli hajmi, ekin turlari va hosildorlik kabi qator muhim masalalarga doir aniq va tezkor ma'lumotlar shakllantirish bo'yicha tizim yo'lga qo'yilgani yuzasidan hisobot berildi.

Manfaatdor vazirlik va idoralar qatorida "O'zbekkosmos" agentligiga qishloq va suv xo'jaligi sohalarini raqamlashtirish, uchuvchisiz apparatlardan foydalanish, qurilish, kadastr, noruda konlar, o'rmon va yaylov yerlari bo'yicha ham tahlillar o'tkazilishi yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

"O'zbekkosmos" agentligi zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha yagona va uzluksiz "texnologik janjir" hamda temir ijro intizomini yo'lga qo'yilgan.

Ijro intizomi mas'uliyat va javobgarlikdir. Bu nafaqat texnik jihatlarni amalga oshirish, balki rahbarning shaxsiy sifatlati — qat'iyat, tahlil qilish qobiliyati va nazoratni ta'minlashdagi salohiyati bilan ham bog'liq jarayon. Bugun "Ishni jamoa bajaradi, mas'uliyat esa shaxsiy" degan prinsipial qoidaga qat'iy amal qilish, har bir rahbar shaxs o'z tizimida ijro intizomini ta'minlashi, bajarilgan ishlar uchun shaxsan javobgar bo'lishi talab etilyapti. Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ilmiy sohalar yoki axborot texnologiyalari — qaysi yo'nalish bo'lmasin, ijro intizomini mavjud bo'lmasa, hech qanday islohot natija bermaydi. Shu bois, ijro intizomi natija, mas'uliyat, javobgarlik va rivojlanish kafolatidir.



ya'ni ijro intizomi ta'minlanishi lozim. Ko'plab sohalarida bo'lgani kabi kosmik sohada ham ijro intizomi texnologik taraqqiyotga yo'l ochadigan asosiy omillardan biridir. Sababi

hisobotini muntazam eshitib borish tizimi joriy etilgan. Ushbu tizimning mantiqiy davomi sifatida agentligimizda har hafta yakunida ijro muddati yaqinlashayotgan hujjatlar tahlil

“E’tirof etish kerakki, mahsulotlarimiz sifatli va shirin bo‘lgani bois, chet el bozorlarida “O‘zbekistonda yetishtirilgan” brendi mashhur. Xususan, ilg‘or eksportchilarimiz bu yil “shok” usulida muzlatilgan 9 ming tonna olchani 26 million dollarga eksport qilgan. O‘zimizda olcha yetishmagani uchun import qilib, muzlatib, qayta eksportga chiqarishni ham boshlashgan.

Boshlanishi 1-betda

90-yillarning boshlarini kattalar hozir ham ko‘p eslaydi. O‘sha davrlarda dehqon bozorlarida faqat kartoshka, sabzi va piyoz sotuvchi va xaridorlarning asosiy mahsuloti bo‘lgan. Bugun esa xoh qish bo‘lsin, xoh bahor,

bejirim qadoqlangan qaymoq, smetana, kefir kabi sut mahsulotlarini ko‘rib, ajablanmaslikning iloji yo‘q edi. Chunki mahsulotlar o‘sha kuni ishlab chiqarilgan. Sotuvchilardan so‘raganimda, yaqin-atrofda fermierlar o‘z fermalaridagi



uzum, mandarin, kivi, qulupnay, banan kabi sarxil mevalarni endigina uzilgandek holatda sotib olish mumkin. Kattalarning eslashicha, mandarinu ananaslar 90-yillarda bozorlarimizda deyarli bo‘lmagan.

Bundan bir necha yillar oldin xizmat safari bilan Polshaga bordim. Erta tongdan mehmonxonamiz yaqinidagi supermarketlarni aylanardim. Shinam do‘konlar rastalaridagi

sutni qayta ishlab, iste’molchilarga sifatli va tez yetkazishga harakat qilarkan. Bu yerda raqobat sotib olish mumkin. Kattalarning eslashicha, mandarinu ananaslar 90-yillarda bozorlarimizda deyarli bo‘lmagan.

Shundan so‘ng ushbu mamlakat qishloq xo‘jaligi bilan qiziqdim. Fermerlarga yer xususiy mulk sifatida berilgan. Dalasiga nima ekishni o‘zi hal qiladi. Innovatsion yechimlar



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

bilan hosildorlikni oshirish choralarini ko‘radi. Hukumatning qishloq xo‘jaligiga mas’ul idoralari fermerlarga qanday ekin ekish bo‘yicha maslahat berarkan, xolos. Deylik, sabzi yoki kartoshka bu yil ko‘p ekilgani, shu bois, kelayotgan mavsumda bu mahsulotlar narxi tushib ketishi mumkinligi to‘g‘risida fermerni axborot bilan “qurollantirarkan”.

Agar yodingizda bo‘lsa, o‘tgan yili yurtimizda piyoz haddan tashqari ko‘p ekilishi tufayli narx juda arzonlab ketdi. Natijada minglab gektardagi mahsulot dalalarda qoldi. Bunday holat ikki-uch yilda tez-tez sodir bo‘lib turadi. Dehqon-u fermerlar kuyib qolaveradi. Mahalliy darajadagi mutasaddilar esa aynan narx pasayib ketganidan so‘ng harakatga tushib qoladi. Bu yil ham xuddi shunga o‘xshash vaziyat pomidor va tarvuzda kuzatildi.

O‘tgan haftada Prezidentimiz raisligida meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini ko‘paytirishda yangi xazira va imkoniyatlarni ishga solish yuzasidan o‘tkazilgan videoselektorda shu oldidagi muammolar atroficha tahlil etilib, aniq masalalar yechimiga qaratilgan qarorlar qabul qilindi.

Ta’kidlash kerakki, so‘nggi uch yilda 250 ming gektar paxta va g‘alla yeri oziq-ovqat yetishtirishga berildi. 160 ming gektar yangi bog‘ va tokzor barpo etildi. Eskirgan 107 ming gektari yangilangandi. 1 milliard dollarlik 1,5 mingta oziq-ovqat loyihasi ishga tushirildi.

Bundan tashqari, 100 ming tonna saqlash, 70 ming tonna quritish, 46 ming tonna saralash va qadoqlash quvvatlari yaratildi. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda. O‘tgan oyda O‘zbekiston Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) kengashi a’zozligiga saylandi.

“Bu milliy va mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surish, yangi loyihalarga mablag‘ jalb qilishda biz uchun katta imkoniyat”, deya ta’kidladi Prezident.

Ushbu yig‘ilishda davlatimiz rahbari xalqaro vaziyat kun sayin o‘zgarib borayotgani, yildan yilga takrorlanayotgan ob-havo inijliklari, “anomal issiq” va “anomal sovuq” degan tushunchalar odatiy holga aylanib ulguriganiga e’tibor qaratdi. Bunday qaltis sharoitda har bir eksport bozori mamlakatimiz uchun o‘ta muhimligi, kerak bo‘lsa, bu iqtisodiy

xavfsizlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatib o‘tiladi.

Shu bois, mazkur tadbirda soha mas’ullari va hokimlarga sharoitga moslashib, issiq va sovuqqa, suvsizlikka chidamli mahsulotlar yetishtirishga o‘tishi zarurligi qayd etildi. O‘tgan 6 oyda oziq-ovqat eksporti 44 foiz o‘tib, 1 milliard 326 million dollar bo‘ldi. Eksport geografyasi 16 ta davlatga ko‘paydi.

E’tirof etish kerakki, mahsulotlarimiz sifatli va shirin bo‘lgani bois, chet el bozorlarida “O‘zbekistonda yetishtirilgan” brendi mashhur. Xususan, ilg‘or eksportchilarimiz bu yil “shok” usulida muzlatilgan 9 ming tonna olchani 26 million dollarga eksport qilgan. O‘zimizda olcha yetishmagani uchun import qilib, muzlatib, qayta eksportga chiqarishni ham boshlashgan.

Meva-sabzavot zamonaviy qadoqda eksport qilinsa, ko‘proq daromad olish mumkin. Bu yil hududlarda 16 ta zamonaviy qadoqlash chiqarish loyihasi ishga tushdi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar kuchaytirilib, yil yakunigacha yana 15 ta bunday korxona ochildi.

Bugungi kunda respublikada 5,1 ming gektar issiqxona mavjud bo‘lib, so‘nggi yetti yilda

ularda yetishtiriladigan mahsulot hajmi 110 ming tonnadan 546 ming tonnaga ko‘paydi.

Endilikda ichki bozor bilan bir qatorda eksportga ham mahsulot yetishtirish majburiyatini olgan, tabiiy gazda ishlayotgan issiqxonalarga qishki mavsumda gaz kafolatli hajmda beriladi. Ko‘mir yoki boshqa muqobil isitish tizimida ishlayotgan hamda eksport majburiyatini olgan issiqxonalarga ham tabiiy gazga qaytish imkonini bo‘ladi.

Qolaversa, bundan buyon issiqxonalarda, toifasidan qat’i nazar, yer solig‘ini qishloq xo‘jaligi yerlari stavkasida to‘lashi belgilandi. 2028-yilga qadar issiqxona ishchilari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizga tushiriladi.

Hozir fermerlar yer, kredit, subsidiya va agroxizmatlar bo‘yicha 30 dan ortiq platformadan foydalanayapti. Buni osonlashtirish uchun ular birlashtirilib, “Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsion platformasi ishga tushiriladi.

Endi dalasiga nima ekishni fermerning o‘zi hal qiladi. Buni platformaga ham uning o‘zi kiritadi. Natijada asosiy, takroriy va to‘qsonbosti ekinlar miqdori oldindan ko‘rinadi. Bu oziq-ovqat xavfsizligi, narx-navo barqarorligi va dehqonlarning daromadida juda muhim.

Fermerlarga berilayotgan ushbu erkinlik o‘tgan haftaning eng muhim yangiligi bo‘ldi, desak mubolag‘a emas. Chunki dalasiga nima ekish mumkinu qaysi ekindan mo‘l hosil olish imkoniyatini uning o‘zidan ko‘ra yaxshiroq biladigan bo‘lmasa kerak. Qo‘l boshqaruviga asoslangan turli byurokratik bosimlar fermerlar ishiga xalaqit bersa beradiki, aslo foyda keltirmaydi.

Qisqacha aytganda, milliy iqtisodiyotimizning ertasi, xalqimizning turmush farovonligi, bozorlarimiz to‘kinligi bevosita qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar va uning samarasiga bevosita bog‘liq. Zero, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning eng muhim sharti ham aslida shu!

Yunus BO‘RONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yashil iqtisodiyot”

GEOTERMAL ENERGIYA — YERNING ISSIQLIGIDAN ELEKTR TOKI OLISHNING YANGI YO‘NALISHI

Jahon iqtisodiyotida “yashil” taraqqiyot tamoyillariga o‘tish bo‘yicha o‘ziga xos tendensiya kechmoqda. Ya’ni mamlakatlarning barqaror rivojlanish harakatlarida organik yoqilg‘i iste’moli tizimli kamayib, noan’anaviy energiya resurslari — “yashil” energetikaga o‘tish ko‘rsatkichlari o‘tib boryapti. Biz yaqinlashda kelajak texnologiyalar deb hisoblaydigan muqobil energiya manbalari bugun har bir davlat uchun iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aйлandi.

Gap tabiat beminnat in’om etadigan va katta manba hisoblanadigan quyosh, shamol, suv va boshqa vositalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish haqida boryapti. Ular neft, tabiiy gaz, ko‘mir va uran kabi qazib olinadigan yoqilg‘ilardan farqli o‘laroq, qayta tiklanish xususiyatiga ega, ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan arzon. Asosiysi, ekologik jihatdan xavfsiz bo‘lib, tobora keskinlashib borayotgan global iqlim muammolari sharoitida “yashil” energetikaga o‘tishdagi samarali yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Dunyoda qazib olinadigan yoqilg‘i kamayishi, shuningdek, an’anaviy yoqilg‘i va atom energetikasi tufayli atrof-muhit o‘zgarishi energiya olishning yangi usullari va shakllariga o‘tish muqarrarligini ko‘rsatganiga ancha bo‘ldi. Ko‘plab davlatlar allaqachon buni tushunib yetgan. Shu bois, katta xarajatlarga qaramay, muqobil energiya manbalaridan foydalanish tobora oshirib borilmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, birgina 2019-yilning o‘zida dunyo bo‘ylab umumiy quvvati 200 gigavatt bo‘lgan qayta tiklanadigan energiya manbalari obyekti o‘rnatilgan. Oradan olti yildan ortiq vaqt o‘tdi, demak, bu boradagi tajriba ham, ko‘lam va ko‘rsatkichlar ham bir necha barobar oshgan.

Asosiysi, “yashil” taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlatlar tabiiy manbalar zaxirasini tejab, iqtisodiyot tarmoqlarida arzon va ekologik xavfsiz muqobil energiya manbalariga faol o‘tmoqda. Chunki muqobil energiya manbalariga qiziqish o‘rtishi nafaqat uglevodород yoqilg‘isi zaxiralari kamayishi, balki ekologik muammolarni hal qilish zarurati bilan ham bog‘liq.

“Yashil” energetikaga o‘tish O‘zbekiston uchun ham iqtisodiy, ham ekologik, ham geosiyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Hukumat 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami iste’moldagi ulushini 54 foizga yetkazishni maqsad qilgan. Buning uchun yirik loyihalar amalga oshirilyapti. Muqobil energiya manbalaridan foydalanishning samarali usullari asta-sekin amaliyotga joriy etilmoqda. Nafaqat iqtisodiyot tarmoqlari, balki aholi xonadonlarida ham “yashil” energetikadan foydalanish ko‘rsatkichlari ortib boryapti.

Tuganmas manba

Qayta tiklanadigan energiya manbalari haqida gap borsa, asosan quyosh, shamol, suv energetikasini tilga olamiz. Ammo ular orasida yana bir muqobil energiya manbai bor bu — geotermal energiyadir. To‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilganda, geo — yer, termal — issiqlik

ma’nosini anglatadi. Ya’ni geotermal energiya yer ostidan olinadigan issiqlik energiyasi yoki yerda saqlangan issiqlikdan olinadigan energiyadir. Soddaroq aytganda, bu usulda elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun yer issiqligidan foydalaniladi. Xuddi quyosh, shamoldan foydalanilgani kabi.

Mamlakatimizda elektr energiyasi asosan tabiiy gaz va neft hisobiga ishlab chiqariladi. Keyingi yillarda “yashil” energetika manbalari hajmi keskin oshdi. Ammo bu hali mavjud tabiiy qoplash uchun yetarli emas. Muqobil energetikaning boshqa manbalari qatori geotermal energiya olishni rivojlantirish samarali natija beradi. Ayniqsa, markazlashgan tarmoqlarga ulanmagan o‘lis aholi punktlarini elektr energiyasi va issiqlik bilan ta’minlashda energiya xavfsizligi darajasini oshiradi.



Geotermal energiya deyarli cheksiz salohiyatga ega bo‘lib, yurtimizning kelajakdagi energetika tizimi uchun ishonchli asosdir. Uni qazib olish va yetkazib berishning zamonaviy, ekologik toza texnologiyalaridan foydalangan holda aholi va korxonalarni arzon hamda quyi elektr energiyasi, issiqlik bilan barqaror ta’minlash mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar geotermal energiyadan to‘g‘ridan to‘g‘ri (issiqlik energiyasi) yoki elektr energiyasiga aylantirish (geotermal elektr stansiyasi) samarali foydalanish imkonini beradi. Geotermal manbalarni gidrotermal va petrotermal resurslarga bo‘linadi.

Ancha ommalashgan petrotermal energiya yer qog‘i’ining chuqur qatlamlari, yer osti suvlari bo‘lmagan, ammo tog‘ jinslari harorati yuqori joylarda saqlanadigan issiqlikdir. Bu energiya manbai kunning vaqtiga, ob-havo sharoitiga yoki mavsumga bog‘liq emas. Shu xususiyatlari tufayli petrotermal energiya istiqbolli va barqaror hisoblanadi. Qolaversa, ishlab chiqarishda zaharli gaz chiqmaydi, yonilg‘i yoqish talab qilinmaydi, tashqi omillarga deyarli bog‘liq emas. Uning resurslari esa insoniyat sivilizatsiyasi o‘lchovlari bo‘yicha haqiqatan bitmas-tuganmasdir.

Qaysi hududlar tanlanmoqda?

Yer issiqlik maqsadli o‘zlashtirilsa, ishlab chiqariladigan elektr energiyasi narxi pasayishiga erishish mumkin. Bugungi kunda bunday texnologiyalar faol rivojlanish bosqichida. Yuqori geotermal falklikka ega mamlakatlar, xususan, Germaniya, Islandiya, Yaponiya va

AQSH o‘z energiya ta’minotini yanada barqaror va qazib olinadigan yoqilg‘idan mustaqil qilish maqsadida petrotermal loyihalarga sarmoya kiritmoqda.

Masalan, Xitoyning o‘laylik. Deyarli 40 yil ichida rivojlanmay kelgan, geotermal energetika oxirgi yillarga kelib, tom ma’noda “ikkinci tug‘ilish” bosqichini boshdan kechirmoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatda geotermal salohiyat o‘lishi 853 milliard tonna ko‘mirni yoqish natijasida olinadigan energiya bilan taqqoslanadi. Uzog‘i bilan 10 yil ichida bu yo‘nalishdagi katta strategiya amalga oshirilishi kutilmoqda. Dunyo bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan geotermal energiyaning 15 foizi allaqachon Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelyapti.

AQSHda esa 2019-yilda petrotermal energetikani rivojlantirish bo‘yicha maxsus dastur ishga tushirildi. Bashoratlariga ko‘ra, 2050-yilga borib, mamlakatda petrotermal elektr stansiyalari quvvati 45 gigavattga yetib, umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi 8,5 foizni tashkil etadi.

Yerning issiqligi haqiqatan noyob resurs bo‘lib, undan foydalanish ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan foydalidir. Keyingi yillarda O‘zbekiston ayni shu jihatlarga katta e’tibor qaratayotgani, qolaversa, quyoshli o‘lkamizning yer tafi ham doimiy issiq bo‘lishini hisobga olsak, bu yo‘nalishni rivojlantirish imkoniyatlarimiz kengligi ko‘rinadi. To‘g‘ri, geotermal energiyani ishlab chiqarish va sanoatda foydalanish bo‘yicha hali mamlakatimizda amaliy tajriba yo‘q. Qolaversa, bunday energiyani tashish va omborga joylashtirishning imkonini ham mavjud emas.

Ammo yaqin yillargacha quyosh va shamol energiyasi borasida ham tajribamiz yo‘q edi. Islohotlar natijasida bugun yurtimiz mazkur

yo‘nalishda Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchilik qilib, o‘ziga xos tajriba yaratga oldi. Jahonning eng ilg‘or investorlari mamlakatimiz “yashil” energetika tarmog‘iga katta qiziqish bildirib, sarmoya kiritmoqda. Muqobil energiyaning geotermal turini ham shunday rivojlantirish imkoniyatlarimiz bor.

Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar H.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutida ancha yillar oldin boshlangan. Yurtimizdagi “yashil” energetika taraqqiyoti ushbu usulni zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘rganish va amaliyotda sinash imkoniyatlarini oshirdi. Ayni vaqtda institutning litosfera tuzilishi laboratoriyasida shu bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ko‘proq yuqori issiqlik oqimiga ega bo‘lgan hududlar baholanyapti. O‘rganishlarga ko‘ra, Markaziy Qizilqum, Hisor, Chotqol-Qurama va Orol mintaqalarida geotermal energetikani rivojlantirishga qaratilgan dastlabki ishlarni boshlash muhim qadam bo‘ladi. Bu geotermal elektr stansiyalari va issiqlik ta’minoti tizimlarini keng joriy etish bilan bog‘liq. Mazkur harakatlar kelajakda mamlakatning turli hududlarida iqtisodiy o‘tish va infratuzilmani yaxshilashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan H.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti laboratoriyasida “Qizilqum, Hisor, Olmaliq-Angren mintaqalarida ilg‘or geofizik zondlash usullarini qo‘llagan holda geotermal anomaliyalarni aniqlash va muqobil energiya manbalarini asoslantirish” drayver loyihasi ustida ish olib borildi. 2022-2024-yillarda Jahon bankining grant mablag‘lari hisobidan “O‘zbekistonda qayta tiklanadigan geotermal energiyani rivojlantirish” loyihasi amalga oshirildi. Loyihalar doirasida yurtimizning salohiyati yuqori maydonlari tuzilishining chuqurlik modellari olinib, sinov burg‘ilash va binar geotermal stansiyalarni qurish uchun joylar aniqlandi. Endi ana shu yerlarda amaliy harakatlar boshlanadi.

Xullas, yaqin yillarda yurtimizda geotermal stansiyalar paydo bo‘ladi. Buning hisobiga elektr energiyasi ishlab chiqarish va aholi hamda iqtisodiyot tarmoqlariga uzluksiz yetkazib berish quvvatlari yanada oshadi. Mamlakatimizning o‘lis hududlariga xavfsiz va ekologik toza elektr energiyasi yetib borishi ta’minlanadi. Bu esa aholi farovonligi, hududlar va iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi.

Rasuljon SAHOBIDDINOV,
H.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti litosfera tuzilishi laboratoriyasi boshlig‘i,
Irina SIDOROVA,
laboratoriya bosh ilmiy xodimi



O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga

YANGI O‘ZBEKISTON ILM BILAN DUNYOGA YUZ TUTAYOTGAN MAMLAKAT

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlasak, har qanday ulkan sivilizatsiya, kuchli davlat va buyuk jamiyat asosida tafakkur, ilm va ma’rifat turganini ko’ramiz. Shu ma’noda, yangi O‘zbekiston g’oyasi ilm-fan, ta’lim va intellektual salohiyatni davlat rivojining asosiy ustuni sifatida belgilab berdi.

Har qanday taraqqiy etgan jamiyat, avvalo, ilm-fanga tayangan holda dunyoga yuz tutadi. Ilm taraqqiyot asosi, olim esa jamiyatning ma’naviy va intellektual suyanchig’idir. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar jarayonida ilm-fanga munosabat tubdan yangilandi. Davlatimiz rahbari ilgari surayotgan taraqqiyot strategiyasi markazida aynan ilm-fan va innovatsiyalar turibdi. Bu faqat deklarativ bayonot emas, balki haqiqiy amaliy harakat, davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan yetuk yondashuv hamdir.

XXI asr — yuqori texnologiyalar davri. Bu texnologiyalar (sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar) jamiyatning turli sohalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Ilm-fan va ma’rifatga islohotlarni ta’minlaydigan strategik kuch sifatida qaralmoqda. Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining boshidanog ilm ahliga tayangan, ularni jamiyat rivoji uchun asosiy so’z egasiga aylantirgani bejiz emas. Bu yondashuvdagi amaliy qadamlar, xususan, 2016-yil dekabrda mamlakat ziyolilari bilan uchrashuv Prezidentimizning ilm sohasiga chuqur e’tiborini, shaxsiy intilishini yana bir bor tasdiqladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ilm-fanni rivojlantirish, milliy taraqqiyotning asosiy ustuniga aylantirish bo’yicha tub islohotlar amalga oshirilmogda. Bunda “olim — yangi tafakkur rahnamosi”, “innovatsiya — rivojlanish resursi” degan qarashlar oddiy ifoda bo’libgina qolmay, kundalik davlat boshqaruvi, jamiyat hayotidagi qarorlar, institutlar va dasturlarda o’z aksini topayotgan haqiqatdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ilm-fan rivoji yo’lidagi shart-sharoitlar, izchil tashabbuslar yangi O‘zbekistonning ilmiy-ma’rifiy poydevorini mustahkamlayotgan hal qiluvchi omillardan biriga aylandi. Ilm — milliy yuksalish harakatidagi bosh mexanizm, olim — zamonaviy tafakkurning haqiqiy rahnamosi, innovatsiya esa taraqqiyotga eltuvchi strategik resurs sifatida hayotga tatbiq etilmogda.

Rivojlangan davlatlar taraqqiyotining asosiy omillarini kuzatar ekanimiz, ilm-fanga e’tiborni davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylantirgan mamlakatlar bugun global taraqqiyotning yetakchi kuchlariga e’vlayotganiga bevosita guvoh bo’lamiz. Masalan, Janubiy Koreyada davlat budjetining 4 foizi raqamli va innovatsion rivojlanish dasturlariga yo’naltirilgan bo’lsa, Xitoyda har yili 2 millonga yaqin olim va muhandis ilmiy loyihalar bilan shug’ullanadi.

Davlatimiz rahbari jamiyat ravnaqi uchun, eng avvalo, ilm ahliga suyanayotgani bejiz emas. Zero, jamiyatdagi islohotlar amaliy va nazariy asoslarsiz, konseptual yechimlarsiz samara



Sa’dulla BAHROMOV,
Fanlar akademiyasi
Fizika-matematika va texnika
bo’limi rahbari-ilmiy kotibi,
fizika-matematika fanlari doktori,
professor, akademik

bermaydi. Ilm ahli esa ana shunday yechimlarni ishlab chiquvchi asosiy kuchdir. Mana shunday falsafiy qarash asosida ilm-fanga ehtiyoj, ilmiy taraqqiyotni ustuvor vazifa sifatida belgilashga qat’iy iroda mujassam.

So’nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fan va oliy ta’lim sohasini isloh qilish borasida mutlaqo yangi yondashuv shakllandi. 2017-yilda mazkur sohalarga 340 milliard so’m ajratilgan bo’lsa, 2023-yilda bu ko’rsatkich 1,2 trillion so’mga, 2024-yilda esa 1,6 trillion so’mga yetdi, ya’ni 7 yilda bu mablag’ 4,7 barobar o’sdi.

Aynan shu moliyaviy tayanch evaziga 2023-yilda 500 ta, 2024-yilda esa 620 tadan ortiq yangi tadqiqot loyihasi amalga oshirildi. Shu bilan birga, 2023-yilda 3000 yosh tadqiqotchi stipendiya va grantlar bilan qo’llab-quvvatlangan bo’lsa, 2024-yilda bu ko’rsatkich 3700 nafarga yetdi.

Innovatsion loyihalar soni ham yildan yilga oshib bormogda: 2020-yilda 28 ta startap davlat tomonidan qo’llab-quvvatlangan bo’lsa, 2023-yilda 120 ta, 2024-yilda esa 150 tadan ortiq loyiha amalga oshirildi. Bu ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiyotga ta’siri tobora ortib borayotganini ko’rsatadi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati yangilanmogda, yosh tadqiqotchilar uchun stipendiya, grant va inkubatsiya dasturlari orqali aniq maqsadga qaratilgan qo’llab-quvvatlov mexanizmi kengaymogda. 2024-yilda 40 ta yangi laboratoriya va ilmiy inkubator tashkil etildi. Ularning aksariyati biotexnologiya, agrosanoat va raqamli iqtisodiyot sohalarida faoliyat yuritmogda.

Akademik salohiyatni iqtisodiyot va ijtimoiy hayot bilan bog’lash, eng muhimi, ilmiy tafakkurni davlat siyosatiga yo’naltirish bo’yicha aniq va qat’iy qadamlar qo’yilmogda. Bu jarayonda “ilm — investitsiya”, “innovatsiya — milliy mahsulot” degan tamoyillar asta-sekin amaliyotga joriy etilmogda.

E’tiborga molik jihati shundaki, ushbu jarayonda shaxsan davlatimiz rahbari ilmiy-texnik taraqqiyotni ustuvor yo’nalish sifatida belgilab, amaliyotga joriy etish borasida barcha darajadagi rahbarlardan mas’uliyat va intizom talab qilmogda.

Yurtimizda ilm-ma’rifatga oldindan puxta e’tibor qaratib kelingan. Bugungi sa’y-harakatlar ana shu an’ananing mantiqiy davomi sifatida kelajak taraqqiyotiga qaratilgan qat’iy intilish va mustahkam poydevor bo’lmogda. Shu bilan birga, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, yetakchi olimlar hamda yosh tadqiqotchilar ishtirokida o’tkazilgan qator uchrashuvlarda ham mamlakatimizda ilm-fanni jadal rivojlantirish masalasi keng muhokama etildi. Xususan, pedagog kadrlar malakasini muntazam oshirib borish, ularni taqablashirilgan holda rag’batlantirish tizimini joriy qilish rivojlanish uchun muhim omil sifatida e’tirof etildi. Shuningdek, magistrlar uchun Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlarida stajirovka o’tash amaliyotini joriy etish, tabiiy fanlar va muhandislik yo’nalishlarida ta’lim oluvchilarni davlat buyurtmasi asosida byudjet hisobidan tayyorlash zarurligi o’z vaqtida anglanib, bu yo’nalishda izchil va oqilona siyosat yuritilmogda.

Umuman olganda, keyingi yillarda ilm ahliga munosabati tubdan o’zgartirish, olimlarning ijtimoiy holatini yaxshilash, moddiy ta’minotini kuchaytirish asosiy vazifa sifatida ko’tarilaypti. Bunday e’tibor samarasi o’laroq, bugun Fanlar akademiyasi va unga qarashli institutlar ham modernizatsiya qilinmogda. Akademiy muassasalarida 2022-yilda 400 dan ortiq zamonaviy laboratoriya jihozlari o’rnatilgan bo’lsa, 2024-yilda ular soni 700 dan oshib ketdi. Olimlar ilmiy tadqiqotlardan tashqari sun’iy intellekt, biotexnologiya, iqlim o’zgarishi va



suv resurslarini boshqarish bo’yicha yangi texnologiyalar yaratib, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga munosib hissa qo’shib kelaypti.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi qanchadan qancha innovatorlar va ilmiy tadqiqotchilarni kashf etmogda. 2020-2024-yillarda agentlik ko’magida 1200 dan ziyod yangi innovatorlik loyihasi davlat ro’yxatidan o’tkazildi, 400 ga yaqin ilmiy ixtiro amaliyotga joriy etildi. Yangidan yangi ilmiy markazlar, texnoparklar va inkubatorlar ochilmogda. Xususan, so’nggi uch yilda ularning soni 25 tadan 67 taga yetdi. Yosh tadqiqotchilar uchun maxsus grant dasturlari yo’lga qo’yilib, 2024-yilda 500 dan ortiq yosh olim xalqaro laboratoriyalarda tajriba oshirdi. Oliy ta’lim muassasalarida startap loyihalarni qo’llab-quvvatlash bo’yicha 100 dan ortiq inkubatsiya platformasi faoliyat yuritmogda. Shuningdek, talabalar va izlanuvchi yoshlar uchun xalqaro konferensiyalar, tanlovlar va stajirovkalarda ishtirok etish imkoniyati kengaymogda. 2023-yilda 1200 dan ortiq talaba

va tadqiqotchi xorijdagi ilmiy stajirovka hamda amaliyot dasturlarida qatnashdi, 2024-yilda esa bu ko’rsatkich 360 nafarga yetdi.

Ayni paytda doktoranturaga kvotalarning eng yuqori qamroviga erishganimiz katta yutuqdir. Bunda ilm-fanga sarflanayotgan mablag’ning YIMga nisbatan o’sish foizini ta’minlash ham muhim o’rin tutadi. Masalan, 2017-yilda bu ko’rsatkich 0,13 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2023-yilda 0,6 foizga, 2024-yilda esa 0,8 foizga yetkazildi. Biroq natijadorlik ham shunga yarasha bo’lmog’i zarur. Tadqiqotchilar sonini har 1 million aholiga nisbatan 2 mingga yetkazish ko’zda tutilayotgan bo’lsa-da, hozir bu ko’rsatkich 750 nafarni tashkil etyapti. Shu ma’noda, biz, olimlar bugun har qachongidan ko’proq izlanishimiz, ishlashimiz talab etilyapti. Olimlarimiz safini kengaytirish, inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo’shish niyati bilan yashasakkin, ilmiy qudratimizni namoyon eta olamiz. Olimlarimiz dunyo miqyosida e’tirof etiladigan ilmiy ishlariga muallif bo’la olishi kerak. Yoshlarimizning maqolalari nufuzli ilmiy jurnallarda chop qilinsa, xalqaro konferensiyalarda e’tirof etilsa, biz, ustozlarning mehnati ko’rinadi. Buning uchun barcha imkoniyat ishga solinyapti, har yili kamida ikki-uchtalab yangi ilmiy tashkilot tashkil etilyapti. Faqat yosh tadqiqotchi va olimlarni baland marralarga ruhlanitra olsa, bo’lgani. 60 yillik ish tajribamdan kelib chiqib o’zim ham shogirdlarimga shu jihatlariga alohida e’tibor qaratishni bot-bot utqiraman.

Bugun ilm-fan sohasiga berilayotgan e’tibor mamlakat taraqqiyotining haqiqiy lokomotiviga aylanmogda. Mamlakatimizdagi yangi imkoniyatlar, ilmiy muhitni kengaytirishga qaratilgan islohotlar nafaqat yurtimiz olimlari, balki yoshlarimiz qalbid ham beqiyos ishonch uyg’otmogda. Ilm-fan sohasini ustuvor darajaga olib chiqish, davlat siyosatining yuragiga aylantirish Prezidentimizning intellektual yetakchilik salohiyati va strategik didining yorqin ifodasidir.

O‘zbekistondagi islohotlar “ilm va tafakkursiz yangi jamiyatni qurib bo’lmaydi” degan qat’iy qarashga tayanadi. Bu falsafaning davlatimiz rahbari tomonidan muntazam takrorlanishi hamda hayotga tatbiq etilishi esa bugungi va ertangi taraqqiyotimizning asosiy kafolatidir. Prezidentimiz ilm ahlini milliy rivojlanishning hal qiluvchi kuchi sifatida ko’rmogda, olimlarning davlat boshqaruvi va strategik qarorlardagi ishtirokini muttasil kengaytirib bormogda.

Shunday ekan, ilm-fan sohasiga oid siyosatni yanada takomillashtirish, natijadorlikni oshirish va olimlar salohiyatini to’liq ro’yogba chiqarish borasida quyidagi muhim xulosalarni keltirish joiz:

Birinchidan, ilmiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan davlat investitsiyalarini YIMning kamida 1,5-2 foizi darajasida bosqichma-bosqich oshirish zarur;

Ikkinchidan, har 1 million aholiga to’g’ri keladigan tadqiqotchilar sonini 2030-yilgacha 2000 nafarga yetkazish bo’yicha alohida dastur ishlab chiqilishi lozim;

Uchinchidan, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilishda rag’batni kuchaytirish, ularning ilmiy maqolalari xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilishini institutsional qo’llab-quvvatlash zarur;

To’rtinchidan, ilm-fan natijalarini iqtisodiyot va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan uzviy bog’lash mexanizmlarini tubdan qayta ko’rib chiqish vaqti keldi;

Beshinchidan, mamlakatimizdagi ilmiy markazlarni global ilmiy miqyosda raqobatdosh holatga keltirish hamda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni amaliyotga keng joriy etish maqsadiga muvofiqdir.

Har bir yutuq, har bir natija ortida katta mehnat va uzviy siyosiy iroda bor. Bu iroda Prezidentimiz shaxsiyatida mujassam. Ilm-fanga milliy tiklanish, intellektual taraqqiyot va dunyo bilan tenglashishning eng asosiy omili sifatida qarash aynan davlat rahbari yuritayotgan siyosatning bosh mezonini unutmashimiz lozim.

Yuksalish pallasi



Jizzax viloyatida aholining yarmidan ziyodi — yoshlar. Shu bois, inson qadrini ulug’lashga qaratilgan islohotlarning barchasi bevosita ular hayoti bilan bog’liq. Prezidentimizning joriy yil 14-fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori asosida viloyatning tuman va shaharlarida 65 ta loyihani moliyalashtirish uchun 5 milliard 566 million so’m ajratildi. Har qanday muammo yechimi mablag’ bilan bog’liqligi bois, bu sarmoya yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda muhim omil bo’lmogda.

— Joriy yilning o’tgan olti oyida 24 ming 26 yigit-qizning bandligini ta’minlashga erishdik, — deydi viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig’i Murodbek Rahmonberdiyev. — Jumladan, 1707 yosh doimiy ish o’rinlariga joylashtirildi. Yana 2432 nafariga 46 milliard 750 million so’mlik kredit ajratildi. Shuningdek, 1120 nafari kasb-hunariga o’qitildi, 19 ming 430 nafari o’zini o’zi band qildi. Qolaversa, migratsiyadan qaytgan 1000 nafardan ko’proq yigit-qizga viloyatda ish topib berish chorasini ko’rilyapti. Hozir ulardan 366 nafari doimiy ishga joylashtirildi.

Prezidentimizning 2024-yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o’zlashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga asosan manzilli ishlar qilinmogda. Jumladan, viloyat bo’yicha 6978 yoshga 5170 gektar yer ajratilgan. Shuningdek, ularga agrotexnik vositalar hamda urug’ va ko’chat uchun subsidiya berilmogda.

Mahalliy hokimlik zakirasidan yer ajratish hisobiga yoshlarning salmoqli qismi qishloq xo’jaligi yo’nalishida ishini topdi. Bundan bir

BAXTLI YOSHLAR O‘LKASINING NURLI MANZARALARI YOXUD JIZZAXLIK YIGIT-QIZLAR NIMADAN MAMNUN?

necha yil avval meliorativ holati yomon, barqaror irrigatsiya tizimi yo’q yer berilgani ko’plab bahslarga sabab bo’lgandi. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar shunchaki hisobot uchun emas, odamlar hayotini o’zgartirish uchun ekanı mutasaddilarga eslatildi. Shundan so’ng Prezidentimiz topshirig’i bilan yoshlarga unumdor yer berila boshladi. Bu juda to’g’ri va adolatli qaror bo’ldi.

Yoshlar o’ziga ajratilgan yerda g’alla, sabzavot, poliz ekinlari va dukkakli mahsulotlar yetishtiryapti. Yangi bog’lar barpo etmogda. Sohadagi yangicha yondashuv mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga hissa qo’shmogda. Muhimi, yoshlar ishli bo’lyapti. Pirovardida oilalar farovonligi, ahilligi va ertangi kunga ishonchi mustahkamlayapti. Insonlar qadr topib, baxtli yashayapti.

Yoshlarga sharoit yaratish tushunchasi juda keng. U hayotning barcha sohasini qamrab oladi. Chunki birorta jabhani yoshlarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Demak, kundalik hayotimizdagi masalalarning ko’pi bevosita navqiron avlodga bog’liq.

Faqat yer ajratish emas, barcha yo’nalishda yoshlarga doir masalalar yechimiga alohida e’tibor qaratilmogda. 2025-yilning dastlabki choragida hududdagi “Yoshlar daftari” tuman (shahar) jamg’armalarida 5 milliard 436 million



so’m va viloyat jamg’armasida 127 million so’m shakllantirildi. Dastlabki yarim yillikda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 3463 yigit-qizdan 1534 nafari (44 foizi)ga amaliy yordam ko’rsatildi. Jumladan, 20 nafari ish bilan ta’minlandi, yana shuncha yoshga mehnat qurollari sotib olishi uchun subsidiya berildi, 22 nafar bo’ljak tadbirkorga kredit ajratildi. Bundan tashqari, yana ko’plab yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy masalalari amaliy hal etildi. Kimningdir o’quv shartnoma puli to’lab berildi, boshqasiga tibbiy va psixologik yordam ko’rsatildi.

Kambag’allikni qisqartirish borasida ham ana shunday yaxshi gaplar aytilish mumkin. Yangi yilning eng olis hududi — Yangiobod tumanida “O’zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati ko’plab yoshlarni ishli qilgan.

— Sartaroshlik qo’limdan keladi, biroq zamonaviy uskunalar sotib olishga qurbim yetmay turgan edi, — deydi Otabek Shukurov. — Tumanimizga biriktirilgan homiy korxona sartaroshxona ochishim uchun zarur jihozlarni olib berdi. Endi ishim, daromadim bor. Qolgani o’zim uddalab, xalqimizga siddiqdildan xizmat qilish orqali ko’rsatilgan yordam uchun rahmatimni izhor etmoqchiman.

Ha, jizzaxlik yoshlar hayotida yaxshi o’zgarishlar ko’p. Ammo bundan barcha ish “besh” ekan degan xulosa chiqmaydi. Shu o’rinda yoshlar bilan ishlashni yanada yaxshilash bilan bog’liq ayrim taklif va mulohazalarni bildirish lozim. Masalan, maktabni bitirganlarning hammasi ham oliy o’quv yurtida o’qishni davom ettirmasligi, ish joyiga ega emasligi ma’lum. O’qimaydigan, ishlamaydigan, xullas, hayotda o’z o’rnini topib ulgurmagalar hamma joyda uchraydi. Aslida, yigit-qizlar tarbiyasidagi muammo ham ana shu “uyushmagan yoshlar” bilan bog’liq. Turli buzg’unchi g’oyalari ta’siriga tushib, noto’g’ri

yo’llarga kirib qolayotganlarning aksariyati bekorchı yoshlardir.

— Prezidentimiz topshirig’iga muvofiq, viloyatimizda og’ir toifaga kiradigan 2000 dan ziyod yosh aniqlandi hamda respublika viloyat, tuman, shahar miqyosidagi 184 ta idora va tashkilot rahbarlariga biriktirildi, — deydi Murodbek Rahmonberdiyev. — Jumladan, og’ir toifaga kiritilgan ishsiz yoshlardan 14 nafari hududiy elektr tarmoqlari aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisiga, 19 nafari viloyat hokimi, o’rinbosarlari, boshqarma boshliqlari, tuman, shahar hokimlariga nomma-nom biriktirildi. Ushbu yoshlar bilan manzilli ishlash maqsadida mas’ullar “yo’l xaritalari” ishlab chiqdi. Reja asosida uchrashuvlar tashkil etilib, yoshlar muammolari o’rganilmogda. Xususan, o’tgan yarim yilda 310 nafar yigit-qiz ish bilan ta’minlandi. Bundan tashqari, alohida toifadagi 2537 yoshlar huquq-tartibot va mudofaa organlarining mas’ullari o’taliqqa oldi. Hozir ularning holati manzilli o’rganilyapti.

Bu yo’nalishda ko’rilayotgan chora-tadbirlar qanchalik puxta va izchil amalga oshirilmasin, masala to’la yechim topmaydi. Chunki hayot bir joyda to’xtab turmaydi. Hademay bu yil maktabni tamomlab, o’qishni oliy ta’limda davom ettira olmagın yoshlar mehnat bozoriga kirib keladi. Joriy yil boshida o’tkazilgan xalovda aniqlangan 11 ming 912 ishsiz va mehnat bozoriga kirib keladigan bitiruvchilar bandligini ta’minlash maqsadida tegishli idoralar hamkorligida “fuqarobay” mahalla — sektor — tuman kesimida yoshlar bandlik dasturlari ishlab chiqilmogda. Shu orqali kredit, subsidiya va yer ajratish, kasb-hunar hamda tadbirkorlikka o’qitish orqali yoshlar bandligi ta’minlanadi.

Umuman olganda, yangi O‘zbekistondagi islohotlar boshqarilganida ko’ra ko’proq e’tibor qaratisr zarur bo’lgan qatlam — yoshlar hayotida ham o’z aksini topmogda.

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Turkiy so‘z mulkining sultoni, mo‘tabar mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning “So‘z ayladi insonni judo hayvondin, bilki guhari sharifroq yo‘q ondin” tarzidagi hikmati bor. Unda so‘zning, tilning odam bolasini boshqa jonzotlardan tamoman farqli rutbaga noil qilishday behad buyuk qudrat ekanidan iborat mutlaq haqiqat o‘zining rost va raso tajassumini topgan. Bu mutlaqo benazir ne‘matning adosqiz va muhtasham qudratlaridan yana biri shuki, u odamlarni yagona qavm o‘laroq birlashtirib, millat degan tansiq tushunchaning tavalludiga chiroq tutgan, xalq deyiladigan muazzam birlikning butunligiga zamin bo‘lgan. Shuning uchun ham til, millat, xalq tushunchalarini hech bir zamonda bir-biridan ayro holda aslo tasavvur qilib bo‘lmaydi.



Nizomiddin MAHMUDOV, O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor

Jadidchilik harakatining yorqin namoyandalaridan xiri Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida juda katta dard bilan quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Har bir millatning dunyoda borlig’in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Mutlaqo ayonki, tilsiz milliy ruh degan bemisl teran va ulug‘vor tushunchaning mohiyati tamoman muallaqlashadi. Demakki, milliy ruh, milliy ong, milliy ma’naviyat, milliy madaniyat kabi tushunchalarning asl ustuni, tirik tirgagi ona tilidir. Zabardast o‘zbek tilshunosi, akademik Alibek Rustamov bu holatni go‘zal va ohorli qiyoslab, mana bunday tavsiflagan: “Tirik jonning hayoti uchun havo qanchalik zarur bo‘lsa, insonning inson sifatidagi turmushi va

uning insonligini belgilovchi ma’naviy tirikligi uchun so‘z (ya’ni til) shunchalik zarurdir”.

Jamiyat hayotidagi har qanday o‘zgarish va yangilanishlar tabiiy ravishda, eng avvalo, tilning lug‘at boyligida aniq aksini topadi. Ayni shu ma’noda til “har qanday kishilik jamoasi ijtimoiy hayotining eng aniq va sezgir barometri” deb ham baholanadi. Dunyoga tanikli olmon adibi Herman Hessening “So‘zlar tilning umurtqasi va birlamchi unsurlaridir”, degan o‘tkir obrazli gapida ham katta ilmiy haqiqat bor. Shuning uchun ham tilning tirikligi va tozaligi haqida so‘z borganda, eng avvalo, ayni shu so‘zlar, ya’ni tilning leksik sathi, lug‘at boyligi nazarda tutiladi. Zotan, odamning olamni bilishida, har qanday ashyo va tushunchalarni inkishof qilishida birlamchi vosita so‘zlardir. Mashhur farang adibi Anatol Fransning “Lug‘at alifbo tartibidagi butun olamdir”, degan gapi bu ma’noda juda ham topib aytilganini ta’kidlash joiz.

Bundan o‘n-o‘n besh yillar ilgari “National Geographic” jamiyati tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiya Hindistonda avval fanga ma’lum bo‘lmagan koro tilini aniqladi va bu tilni dunyodagi 6909-til sifatida qayd etdi. Yer yuzidagi ana shunday katta miqdordagi tillar orasida birorta ham mutlaqo sof til yo‘q. Hamma zamonda bir tildan boshqasiga muayyan miqdorda so‘z o‘tib turgan. Bu jarayonlarning mo‘tadil me‘yor doirasida bo‘lishiga tabiiy holat sifatida qaralgan, me‘yordan ortib ketishi esa begona til so‘z bosqini ostida qolgan jamiyatning hamiyatini og‘rintirgan. Shuning uchun ham madaniyatli, ma’rifatli jamiyatning hech bir ongli a‘zosi bunday jarayonlarga aslo befarq qaragan emas.

Mamlakatimizda so‘nggi yetti-sakkiz yilda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi jadal rivoju takomili borasida benihoya ko‘lamli va samarador ishlar bajarildi va bajarilmoqda. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi

va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ta’kidlanganidek, “Bugungi globallashev davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”. Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida “ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalar muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borilishi” alohida qayd etilgan.

Yaqinda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi ana shunday ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarning bir turkumini (40 ta birlik) ko‘rib chiqib, ulami rasmiy muomalaga kiritish yuzasidan qaror chiqardi. Belgilangan tartibga ko‘ra, bu so‘z



va atamalar bo‘yicha takliflar ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik birlashmalari markaziy apparatlarida jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi Atamalar bo‘yicha ishchi guruhlar tomonidan tayyorlanib, Davlat tilini rivojlantirish departamentida jamlangan va Atamalar komissiyasining ishchi organi — Fanlar akademiyasining O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida soha mutaxassislari ishtirokida ekspertizadan o‘tkazilib, tegishli ilmiy xulosaga kelingan. Ekspertizadan o‘tkazilgan yangi so‘z va atamalar ommaviy axborot vositalarida jamoatchilik muhokamasi uchun e‘lon qilingan. Atamalar komissiyasi



ekspertlar guruhi tomonidan mazkur so‘z va atamalarni rasmiy muomalaga kiritish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqilib, tavsiyalar berilgan.

qonuniyatlariga to‘liq muvofiq keladi. Chunki o‘zbek tilida ish + tanlamas, ovqat + tanlamas, joy + tanlamas kabi yasash modellari mavjud, yangi yasalgan so‘zning mavjud milliy rangiga hech bir putur yetmaydi. Tasdiqlangan yangi so‘zlar orasidagi affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasalganlari ham o‘zbek tilining faol me‘yorlaridan tashqarida emas.

Avans xorijiy o‘zlashma atamasi o‘rniga tasdiqlangan rosmna o‘zbekcha, ammo bir qadar eskiroq tuyuladigan bo‘nak so‘zi ham tegishli ma‘noni bemalol ifodalaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bo‘nak so‘zining uchta ma‘nosi ko‘rsatilgan, xususan, birinchi ikki ma‘nosi “tarixiy” degan izoh bilan berilgan. Uchinchi ma‘nosi esa “buxgalteriyaga, hisob-kitobga oid termin” izohi bilan quyidagicha keltirilgan: “Maosh hisobidan oy oxirida hisob-kitob qilish sharti bilan oldindan beriladigan pul; avans”.

Tasdiqlangan yangi so‘zlar orasida parol so‘ziga muqobil sifatida o‘ron so‘zi berilgan bo‘lib, bu so‘z aynan “maxfiy shartli so‘z yoki belgi” ma‘nosida qadimgi yoki tarixiy manbalarda ancha keng qo‘llangan. Tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda bugun ham yozuvchilar bu so‘zga murojaat qiladi.

Ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni tilimizga olib kirish, o‘zbekchadagi chet so‘zlardan qutulish uchun o‘zbek tilining ichki imkoniyatidan kelib chiqish zarur. Buning uchun o‘zbek tilining qonuniyatlariga muvofiq yangi o‘zbekcha so‘zlar yasash, u yoki bu sababga ko‘ra iste‘moldan chiqqan qadimgi va eski turkiy so‘zlarni tiklash, xalq shevalaridan so‘z olish eng maqbul yo‘ldir.

Adabiy tilimiz rivoji faqat atamalarlagina bog‘liq emas. Odatdagi so‘z boyligimiz ham juda muhim. Tilimiz boyib borishi uchun jiddiy manbalardan biri shevalardir. Xalq

Tasdiqlangan yangi so‘zlar orasida parol so‘ziga muqobil sifatida o‘ron so‘zi berilgan bo‘lib, bu so‘z aynan “maxfiy shartli so‘z yoki belgi” ma‘nosida qadimgi yoki tarixiy manbalarda ancha keng qo‘llangan. Tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda bugun ham yozuvchilar bu so‘zga murojaat qiladi.

tilida adabiy tilda bo‘lmagan ko‘plab so‘z va iboralar mavjud. Ularning adabiy tilga o‘tishida so‘z san’atkorlarining xizmati beqiyos. O‘zbekistonimiz — ulkan mamlakat, unda turkiy tilning uch buyuk tarmog‘i, ya’ni qarluiq, qipchoq va o‘g‘uz shevalari vakillari yashaydi. Yurtimizning bir hududida dehqonchilik, hunarmandchilik, boshqasida chorvachilik, yana boshqasida baliqchilik kabi sohalar yaxshi rivojlangan. Ularga oid adabiy tilda hozircha yo‘q bo‘lgan so‘zlarni ana shu hududlardan izlagan ma’qul.

Taomshunos olim Karim Mahmudov xotiralaridan birida hikoya qilishicha, u bir taomning tayyorlanish tartibini yozib, zukko so‘z sinchisi Abdulla Qahhorga ko‘rsatadi. Undagi ikra so‘zini ko‘rgan yozuvchi “Buning o‘zbekchasi yo‘qmi?” deb so‘raydi. Olim “Baliqning urug‘i desa bo‘ladi”, deydi. So‘zning ichu tashini baravar ko‘ra oladigan adib “Nima, sizga baliq o‘simlikmi?” deydi achchiqlanib. “Bo‘lmasa, baliqning tuxumi bo‘lsin”, deb javob beradi olim izlangan bo‘lib. Yozuvchi “Baliq tovuq emas”, deydi va xalqda alohida so‘z borligini aytadi. Olim safarlaridan birida Xorazmda bu so‘zni eshitadi, u yerda uvildiriq deyilarkan...

Xalq shevalaridan ayni paytda o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatidan foydalanib ish ko‘rilsa, tilimizning tabiiy takomilini ta‘minlash mumkin. Tilimizning tirikligi, tinqligi va tozaligini ta‘minlovchi poydor tayanch o‘z so‘zlarimizdir.

O‘zbek tili qoida va me‘yorlari asosida shakllantirilgan hamda rasmiy muomalaga kiritiladigan yangi so‘z va atamalar RO‘YXATI

T/r	Chet tillarga oid so‘z va atamalar	Ularning ma’nosi	Rasmiy muomalaga kiritiladigan shakli	Amaldagi qonunchilik hujjatlarida qo‘llanishi
1.	Avans	Fransuz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “oldindan to‘lov”, “jismaniy yoki yuridik shaxs tomonidan boshqasiga kelgusida to‘lanadigan haq hisobidan oldindan beriladigan pul miqdori” degan ma‘noni bildiradi.	Bo‘nak	“Avans” va “bo‘nak” atamalari qonunchilik hujjatlarida, rasmiy ish yuritishda hamda jonli muloqotda barobar qo‘llanmoqda. “Bo‘nak” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma‘nosini ifodalaydi hamda atamaning yagona shaklda qo‘llanishiga olib keladi.
2.	Avtopilot	Yunon va fransuz tillaridan o‘zlashgan so‘z birlikmasi. Turli transport vositalarini inson aralashuvvisi avtomatik boshqarish tizimi ma‘nosida qo‘llaniladi.	Avtoboshqaruv	“Avtopilot” atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Avtoboshqaruv” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma‘nosini ifodalaydi. Hozirda turli lug‘atlar, OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda ishlatib kelinmoqda.
3.	Aysberg	Nemis tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, okean va dengizlarda erkin suzib yuruvchi katta muz bo‘lagi — “muztog‘” degani.	Muztog‘	“Aysberg” va “muztog‘” atamalari darslik, qo‘llanmalarda, firma va tovar nomi sifatida qo‘llangan. Bundan tashqari, lug‘atlarda o‘zaro sinonim sifatida berilib, OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanilmoqda. “Muztog‘” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma‘nosini ifodalaydi.
4.	Bodikamera	Ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “tana kamerasi” ma‘nosida keladi.	Yonkamera	“Bodikamera” atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Yonkamera” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma‘nosini ifodalaydi. Hozirda turli lug‘atlar, OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda ishlatib kelinmoqda.

5.	Brizgovik	Rus tilidan o‘zlashgan so‘z. G‘ildiraklardan otiladigan loy va suv turli tomonlarga sachrashining oldini oladigan jihoz.	Loyto‘skich	Ushbu atama qonunchilik hujjatlarida “sachratmagichlar (brizgovik)” shaklida qo‘llangan. Jonli muloqotda esa “brizgovik” tarzida ishlatib kelinmoqda. “Loyto‘skich” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma‘nosini ifodalaydi.
6.	Vnedorojnik	Rus tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, qiyin sharoitlarga chidamli avtomobil ma‘nosini bildiradi.	Yo‘ltanlamas	“Yo‘ltanlamas” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma‘nosini ifodalaydi. Bundan tashqari, atamadan OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanib kelinmoqda.
7.	Diskussiya	Lotincha “discussio” so‘zidan o‘zlashgan bo‘lib, muammo yuzasidan erkin muhokama, bahs, munozaraga kirishish ma‘nosini bildiradi.	Bahs, munozara	“Diskussiya” atamasi darslik, qo‘llanmalar, ilmiy ishlarda qo‘llanmoqda. “Bahs”, “munozara” atamalari o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma‘nosini ifodalaydi. Ular manbalarda sinonim sifatida birga qo‘llanib, OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanilmoqda.
8.	Dostavka	Rus tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, tovarlarni belgilangan manzilga yetkazish, elib berish ma‘nolarida keladi.	Yetkazish	“Dostavka” so‘zi umumiy ovqatlanish shoxobchalarida, savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda, tovar, narsa-buyumlarni yetkazish xizmatlari, reklamalarda, umuman, jonli so‘zlashuvda faol qo‘llanmoqda. “Yetkazish” so‘zi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma‘nosini ifodalaydi.

O‘zbek tili qoida va me‘yorlari asosida shakllantirilgan hamda rasmiy muomalaga kiritiladigan yangi so‘z va atamalarning to‘liq ro‘yxati bilan tanishish uchun mazkur QR-kodni skaner qiling

